

**GLOBALASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDAGI QADRIYATLAR
TRANSFORMATSIIYASI ZAMONAVIIY DAVRNING DOLZARB TALABI SIFATDA**

Ilmiy rahbar:

Axmedov Sanjar Bektemirovich

Perfect universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

e-mail: axmedov.s@perfectuniversity.uz

Orcid id: 0000-0001-7910-0765, Tel.: +998909551819,

Safaraliyev Abbosxon Asqarali o'g'li

MV TOQQQ Nurobod 99677-harbiy qism Madaniyat markazi boshlig'i

Perfect University Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi

Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99893 326-00-77, +99891 001-99-77,

e-mail: abbosxonsafarov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi davrdagi ba'zi yoshlarning milliy qadriyatlarimizi to'liq anglab yetmay, ulardagi yuzaki qarashlarni oldini olish bo'yicha muammolarni bartaraf etish, kelajakda ularni barkamol etib tarbiyalashdagi milliy qadriyatlarning o'rnini ularga singdirish, yurtimizda yosh avlodni tarbiyalashda amalga oshirilayotgan islohotlarning keng ko'lami haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar hamda undan keying davr mafkuraviy shakllarning vujudga kelishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Mafkura, manaviyat, transformatsiya, sivilizatsiya, jadidlar, genofond, strategiya.*

Ta'kidlash joizki, bugungi globalashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib yetishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur soha yechimiga qaratilgan qator qonun hujjatlar imzolanib, farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda.[6] Bular yurtimizda ma'nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga hizmat qilmoqda. Inson mohiyati moddiy va ma'naviyatning tutashuvida namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlarda har bir millatning tarixi, urf-odatlari, ma'naviyati va madaniyati bilan bog'liq jihatlar ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari, millatimizning tarix silsilalari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib kelmoqda. Ajdodlarimiz

tomonidan milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog'liq holda shakllandi hamda bugungi kungacha ota bobolarimizdan bizgacha meros bo'lib kelmoqda .

Zotan, har bir millat o'z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Bu esa mas'ullikning faqat alohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo'lishini anglatadi. Zero, ma'naviyat va uni anglash masalalariga oqilona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish — komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Bedil aytganidek: “Me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi”. Shunday ekan, jamiyatda inson o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Binobarin, ma'naviyat — ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priq. U ota- bobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Darhaqiqat, jahonga mashhur ajdodlarimiz — buyuk davlat arboblari, sarkarda Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi nafaqat mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilari tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Furqat singari bashariyat sivilizasiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos, katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz hamda din ilmida olamga dong taratgan Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Yassaviy kabi ulamolarimiz yoshlarga ma'naviy va jismoniy kamolot bo'yicha saboq berganlar.

Sharqona millatimizga xos bo'lgan adolatlilik, to'g'rilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, samimiylik, sadoqatlilik, do'stga sodiqlik, ilmlilik, mehr-oqibatlilik, mehmondo'stlik va to'g'rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onalar orqali farzandga singdiriladi. Bu qadriyatlar oilaviy qadriyatlar asosida singdirib borilsa birmuncha oson kechadi deyish mumkin. Chunki, oilada ota-ona tomonidan kundalik o'git va vazifalar sifatida ham shakllantirib boriladi.

Bugungi global davrga kelib qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ularning yosh va individual xususiyatlari e'tiborga olinmayotganligi, tarbiyaviy yondashuvning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar oilaviy ajrimlarning ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z o'zidan ma'lumki, ular ongiga milliy va oilaviy qadriyatlarining yaxshi singdirilmaganligidir.

Ma'lumki, bu borada amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, qadriyatlarimizga yot bo'lgan mafkuralarning kirib kelishiga asosiy sabablar qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- yoshlarning qadriyatlarimizning mohiyati va ahamiyatini anglab yetmasligi;
- nafaqat o'smir-yoshlar, balki ayrim katta yoshli insonlarning o'zlarida ham qadriyatlarga nisbatan e'tiborlarining susayib borayotganligi;

- "Ommaviy madaniyat"ning ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyilishi natijasida qadriyatlarimizga yot bo'lgan mafkuralarni singdirishga harakat qilinayotganligi;

- Qadriyatlar, urf - odat va an'analarning asl mazmun-mohiyati yosh avlod ongiga ilk davrdan singdirib borilmayotganligi va hokazolar.[4]

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak "XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davrida, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turdi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar, qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mavjud edi".[3] XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg'or ma'rifatparvarlar, O'rta Osiyo jamiyatining ilg'or ziyolilarning birinchi avlodi jadidlar yetishib chiqib ularning g'oyalarini rivojlantirdi va ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l oldi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan keying pallada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning odilona siyosati asosida millatimiz genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport tobora milliy istiqlol mafkurasining "strategik quoli"ga aylanib bormoqda. Ma'lumki, ma'naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy hislatlar va insoniy qadriyatlar avvalambor, bolalikdan shakllana boshlaydi. Bolalar erta go'daklikdan boshlab ota-onalari, bobo-buvilari va boshqa oila a'zolarining yurish-turishlari, odob-ahloqlari, muomala munosabatlari, oilaviy urf-odatlar, rasm-rusumlar, udum va an'analarga qarab, ibrat olishga harakat qiladilar. Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir. Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba — ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqdir. Insonni barkamol etib tarbiyalashda badiiy asarlarning o'rni katta. Shuning uchun ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek, axborot- kommunikasiya sohasidagi ohirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. [5]

Bugun ba'zi yoshlarimizning "ommaviy madaniyat" ta'sirida ma'naviy dunyoqarashi tobora tubanlashib borayotir. Ho'sh, unga qarshi kurashda qanday chora-tadbirlarni ko'rish lozim, degan savol tug'iladi. Buning yechimini topish uchun, fikrimizcha, ta'lim-tarbiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish kerak. Ular orasida bizningcha eng muhim ahamiyat kasb etadiganlari qatoriga quyidagilar kiradi:

mafkuraviy ishlarni mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurishga yo'naltirish;

yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va halq farovonligi kabi yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy- siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning

ma'no-mohiyatini ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim- tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish;

— yoshlarni ona -Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

— ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga hurmat- ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish;

— yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida har taraflama va haqiqiy tasavvurlarni shakllantirish kabilardir.

Xalqimiz, birinchi navbatda yoshlarni erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zlaydigan mafkuraviy- g'oyaviy hurujlardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, yurtimizda milliy qadriyatlar xalqimizning azaliy orzu- umidi bo'lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, yurtimizning kelajagi uchun suyanch va tayanch bo'ladigan barkamol o'smir-yoshlarni voyaga etkazib, tarbiyalash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik -milliy g'oyamizning poydevoridir" T., 2021
 2. Eshov B. "O'zbekiston davlatchili tarixi" -T., 2009
 3. Nazarov Q. O'zbek falsafasi. -T., 2003.
 4. Norqulov H. "O'smirlarni oilaga tayyorlashda milliy qadriyatlarning o'ziga xos jihatlari" ilmiy maqolasidan T., 2021
 5. XXI asr gazetasi 2016 yil 20 oktyabr
 6. www.kun.uz
 7. www.lex.uz
- <https://ilm.argos.uz>